“AS-NAFAS” VA “AS-IMMUN” OZIQ – OVQAT QO‘SHILMALARINING ANTIEKSSUDATIV FAOLLIGINI ANIQLASH.

I. R. Asqarov k.f.d, professor, U. M. Turdialiyev t.f.d, professor,
M. M. Xojimatov k.f.d, professor, I. J. Karimov assistent

Annotatsiya: So‘nggi yillarda dorivor o‘simliklardan foydalanish hamda ularning kuchli davolovchi xossalari va xavfsizligi tufayli tadqiqotchilar e’tiborini jalb qilmoqda. Shu bilan bir qatorda tabiiy, mutlaqo zararsiz, ekologik toza, yuqori samara beruvchi oziq – ovqat qo’shilmalarini xalq tabobatida qo’llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu keltirilgan maqolada “As-nafas” va “As-immun” oziq – ovqat qo’shilmalarini antiekssudativ faolligini aniqlash haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: shamollash, karregenin, ekstrakt, kalamush, antiekssudativ faollik, *in vivo, in vitro.*

Bugungi kunda kasalliklarni davolashda zamonaviy dori – darmonlarning ko‘pchiligi o‘simlik manbaalaridan olingan. Shuning uchun ayrim o‘simliklar jumladan, karam, loviya, mosh asosida tabiiy oziq – ovqat qo‘shilmalari yaratildi hamda ularning yallig‘lanishga qarshi faolligi, antiekssudativ faolligi, teriga mahalliy achishtiruvchi ta’sirini “karragenin shishi” modeli usuli yordamida o‘rganildi.

Bizning birinchi navbatda olib borgan tadqiqot ishimizda klassik flogogen hisoblangan karrageninni subplantar kiritish yo’li bilan chaqirilgan o’tkir ekssudativ yallig’lanish modelida amalga oshirildi. Tajribani o’tkazishda tana massasi 175±12 g bo‘lgan 12 ta erkak va urg‘ochi kalamushlarda bajarildi. Tajriba va nazorat guruhlarida karragenin ineksiya qilinishidan oldin hayvonlar orqa oyoq panjasining dastlabki hajmlari o‘lchandi. Oziq – ovqat qo’shilmalarining yallig‘lanishga qarshi ta’siri yallig‘lanish chaqirilgandan keyin 1, 2, 3, 4, 5 soatlarda

Inores

va 24 soatda qayd etildi. Shishlarning kattaligi yallig‘lanmagan va yallig‘langan orqa oyoq panja hajmlari orasidagi farq asosida baholandi.

Karragenin shishi modelining tahliliy sharhlarda kalamush oyoq panjalarining kattalashishi 66 – 180 % qadar yetishi va shishning rivojlanishi 3 – 5 soatdan keyin o‘zining maksimal darajasiga yetishi aytib o‘tilgan. Tajribada 20 va 0.5 ml dozalarda glitserin qabul qilgan kalamushlarda karragenin kiritilganidan 3 soat o‘tib shish kattaligi 44,1±6,8 va 26,3±4,07 % tashkil etgan bo‘lsa, 24 soatdan keyin mos ravishda shish allaqachon 12,8±2,75 va 20,5±6,82 % pasaygan, bunda barcha ko‘rsatkichlar statistik ishonchli tarzda nazoratga nisbatan pastligi aniqlandi. Oziq – ovqat qo’shilmalarning 20 mg/kg dozada kiritilganda antiekssudativ ta’sir karragenin kiritilganidan 3 va 24 soat o‘tgach, nazoratga nisbatan shish kattaligi mos ravishda 53,0 va 74,4 %; 40 mg/kg dozada esa 72,0 va 59,0 % hajmni tashkil etdi.

Oziq – ovqat qo’shilmalarning AEF tajriba hayvonlari orqa oyoq panjasidagi shishlarning nazoratga nisbatan kichrayish farqi orqali foizlarda aniqlandi.

Antiekssudativ faollik quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$AEF=\Delta V_{taj}–\Delta V_n /\Delta V_n$ x100%

Bu yerda: AEF - antiekssudativ faollik, foizlarda; ΔV_n – nazorat guruhi orqa oyoq panjasi hajmi; ΔV_{taj} - tajriba guruhi orqa oyoq panjasi hajmi.

Ushbu oziq – ovqat qo’shilmalari va glitserinning kalamushlarda karragenin yallig‘lanishining kechishiga ta’siri o’rganildi va quyidagi jadvalda keltirildi (M±m; n=6).

1-jadval

Preparatlar	doza, mg/kg	3 soatdan keyin		24 soatdan keyin	
		Shishning kattaligi	AEF, %	Shishning kattaligi %,	AEF, %

		%,			
Nazorat	-	93,8±4,60	-	50,0±6,5	-
As-nafas	5	65,1±1,70	3 1, 0	17,4±3,75	65,2
As-immun	5	59,4±2,12	3 6,6	13,3±2,61	73,4
As-nafas + As-immun	5	54,6±2,68	4 1,7	12,9±1,94	74,2
Glitserin	0.5 ml	44,1±6,80	5 3,0	12,8±2,75	74,4

Izoh: * - p <0,05, ** - p <0,01, *** - p <0,001 nazoratga nisbatan.

Oziq – ovqat qo'shilmalarning xuddi shu dozada mushaklar ostiga kiritilishi o'z samarasini ko'rsatgan, bunda karragenin bilan hosil qilingan oyoq panjalarining shishi 1 soatdan 6 soatgacha nazoratga nisbatan sezilarli darajada pasaygan, yallig'lanishning kamayishi foizda 6 soatdan keyin 29,94±1,49 % ko'rsatkichni tashkil etgan.

Tadqiqotlar **"Sanitary regulations and standards for the humane treatment of laboratory animals and the Declaration of Helsinki"** Sanitariya qoidalari va laboratoriya hayvonlariga insoniy munosabatda bo'lish standartlari va Xelsinki Deklaratsiyasi (Butun Jahon Tibbiyot Assotsiatsiyasi, Edinburg, 2000 y.), **"CIOMS; the council for international organizations of medical sciences"** Xalqaro tibbiy ilmiy jamiyatlar kengashi, **"Guide for the Care and Use of Laboratory Animal"** Eksperimental hayvonlarni saqlash va ularda tadqiqotlar olib borish kabi xalqaro qoidalariga muvofiq amalga oshirildi.

Uniores

Tajribalar Biofizika va biokimyo instituti Metabolomika laboratoriyasida hamda Bioorganik kimyo institutlari Farmokologiya laboratoriyasida amalga oshirildi.

Xulosa: Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, ayni vaqtda bu natijalar boshqa tadqiqotchilarnikiga uyg‘undir va oziq – ovqat qo’shilmalarning faolligi glitserin faolligidan ustundir. Shunday qilib, yallig‘lanish holatida oziq – ovqat qo’shilmalarining antiekssudativ ta’sirini tadqiq qilish, ushbu oziq - ovqatlarning o‘rganilgan barcha dozalarda glitserindan samaraliroq ekanligini ko‘rsatdi.

Inores